

**TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI
VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI
(XONOBOD SHAHRI MISOLIDA)**

Alijonova Yodgoroy Toirjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

***Annotatsiya.** Ushbu maqola Xonobod shahrining turizm sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va uning iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qiladi. Maqolada 2020–2025 yillarda shaharda amalga oshirilgan turizm infratuzilmasi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, turistik oqim va davlat dasturlarining ta'siri o'rganilgan. Statistik ma'lumotlar, grafiklar va jadval shaklida taqdim etilgan tahlillar orqali Xonobod shahrining turizm salohiyati va rivojlanish istiqbollari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Xonobod shahri, turizm rivojlanishi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, turistik oqim, infratuzilma, davlat dasturlari, turizm salohiyati, 2020–2025 yillar, statistik tahlil.*

***Аннотация.** В данной статье анализируются территориальные особенности развития туристической сферы города Хонобод и её влияние на экономику. Рассматриваются реализованные в период с 2020 по 2025 годы проекты в области туристической инфраструктуры, экономические показатели, туристический поток и влияние государственных программ. На основе статистических данных, графиков и таблиц освещается туристический потенциал города Хонобод и перспективы его развития.*

***Ключевые слова:** город Хонобод, развитие туризма, экономические показатели, туристический поток, инфраструктура, государственные программы, туристический потенциал, 2020–2025 годы, статистический анализ.*

***Annotation.** This article analyzes the regional characteristics of tourism development in the city of Khonobod and its impact on the economy. It examines the tourism infrastructure projects implemented between 2020 and 2025, economic indicators, tourist flows, and the influence of government programs. Statistical data, graphs, and tables are used to highlight Khonobod's tourism potential and development prospects.*

***Key words:** Khonobod city, tourism development, economic indicators, tourist flow, infrastructure, government programs, tourism potential, 2020–2025, statistical analysis.*

KIRISH

Turizm sohasining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki ijtimoiy va madaniy taraqqiyotga ham katta ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonning turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri bo'lgan Xonobod shahri, o'zining tabiiy go'zalligi, tarixiy obidalari va sog'lomlashtirish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Xonobod shahrining turizm salohiyati, mavjud infratuzilma, iqtisodiy ta'siri va rivojlanish istiqbollari ilmiy tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Turizm – bu odamlarning doimiy yashash joyidan tashqarida vaqtincha bo'lishi, dam olishi, xizmatlar va taassurotlar olish bilan bog'liq faoliyatidir. Turizm bir necha

turlarga bo'linadi: madaniy, ekologik, sog'lomlashtirish, ekstremal, ziyorat va boshqalar. Turizm tarmog'i hududiy iqtisodiyotda ko'plab sohalar (transport, savdo, xizmat ko'rsatish, qurilish) bilan uzviy bog'liq bo'lib, mintaqaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, tabiiy va tarixiy obidalarga boy, lekin sanoati zaif rivojlangan hududlarda turizm asosiy iqtisodiy turtki bo'lishi mumkin.

Xonobod shahri Andijon viloyatida joylashgan bo'lib, Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan. Shaharning geografik joylashuvi, tabiiy manzaralari, tog'li hududlarga yaqinligi, shifobaxsh havo va suv manbalari uni turizm salohiyatiga ega hududlardan biriga aylantiradi. Xonobod shahrida qadimiy masjidlar, maqbaralar, tarixiy binolar mavjud. Shuningdek, zamonaviy sport majmualari, dam olish maskanlari, tog' sayyohligi uchun qulay joylar mavjud. Bu esa shaharning ichki va tashqi turizmni jalb etish salohiyatini oshiradi.

So'nggi yillarda shaharda turistik infratuzilma rivojlana boshladi. Mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, kafelar, sayyohlik agentliklari faoliyat yuritmoqda. Biroq, infratuzilmaning holati hanuz yetarli emas, ayrim xizmat turlari mavjud emas yoki zamon talablariga javob bermaydi.

Xonobodning mo'tadil iqlimi, tog'li hududlarga yaqinligi va toza havosi, salqin buloqlari sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishga imkon beradi. Ayniqsa, yoz oylarida shaharga ichki turistlar oqimi ortadi. Shaharning Andijon shahri bilan yaqin joylashuvi hamda temir yo'l va avtomobil yo'llarining mavjudligi transport aloqalarini qulaylashtiradi. Biroq, ayrim yo'nalishlarda avtobus va taksi xizmatlarining sifati pastligi turistlarga noqulaylik tug'diradi. Turizmning rivojlanishi mahalliy aholini xizmat ko'rsatish sohasiga jalb etadi. Ammo hozirda bu borada kasbiy tayyorgarlik va xorijiy tillarni bilish darajasi yetarli emas.

Turizm sohasida yangi ish o'rinlarining yaratilishi Xonobod shahridagi ishsizlik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi. Mehmonxonalar, ovqatlanish joylari, sayyohlik xizmatlari va transport sohalarida ish o'rinlari paydo bo'lmoqda. Turistik xizmatlar orqali soliqlar, litsenziyalar va yig'imlar shaklida davlat budjetiga tushumlar ortadi. Shu bilan birga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlariga talab ortadi. Turizm kichik va o'rta biznesning rivojiga turtki beradi. Xususan, hunarmandchilik, milliy taomlar tayyorlash, suvenir ishlab chiqarish kabi faoliyat turlari kengayadi.

Xonobod shahridagi Xontog' qir-adirliklarning 30 g maydonda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish maqsadida, hududga kelib dam oluvchilar uchun xizmat qiluvchi turizm shaharchasini bunyod etish.

3.1-rasm. Xontog' hududida ichki va tashqi turizmni rivojlantirish va dam olish shaharchasini qurish bo'yicha loyihasi



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida Xonobod shahrida 2 922,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 4,8% oʻsishni koʻrsatadi . Davlat tomonidan Xonobod shahrini "Vodiy turizm maskani"ga aylantirish maqsadida Kampirravot mahallasida 66 gektar maydonda sunʼiy koʻl va dam olish maskani barpo etilmoqda. Ushbu loyiha doirasida kamida 800 ta ish oʻrni yaratilib, yiliga 300 ming nafar turistni qabul qilish imkoniyati yaratiladi . 2020-yilda Xonobod shahriga tashrif buyurgan turistlar soni 50 ming nafarga yaqin boʻlsa, 2025-yilda bu raqam 150 ming nafarga yetishi kutilmoqda. Bu asosan yangi turizm infratuzilmasining joriy etilishi va davlat dasturlarining samarali amalga oshirilishi bilan bogʻliq. Andijon viloyatida keyingi besh yilda xizmat koʻrsatish sohasida 80 mingdan ziyod yangi ish oʻrni yaratish va xizmatlar hajmini 3 barobar oshirish rejalashtirilgan. Xonobod shahrida "Afsona – 2" dam olish maskani tashkil etilishi hamda Kampirravot mahallasida yangi turizm obʼekti qurilishi bu dasturlar doirasida amalga oshirilmoqda.

Koʻplab xizmat turlari Xonobod shahrida hali yoʻlga qoʻyilmagan. Xorijiy sayyohlar uchun yetarli darajada servis xizmati koʻrsatilmaydi. Internet, bron qilish tizimlari, gidlik xizmatlarida zamonaviy yondashuv yetishmaydi. Davlat tomonidan turizm sohasi uchun ajratilayotgan subsidiyalar va grantlar mahalliy tadbirkorlar uchun yaxshi imkoniyatdir. Biroq, bu imkoniyatlardan foydalanish darajasi past. Xususiy sektorni jalb qilish va xorijiy investitsiyalarni ragʻbatlantirish uchun aniq va samarali strategiyalar ishlab chiqish zarur. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida

marketing va brend yaratish faoliyatlarini kuchaytirish lozim. Turizm sohasining rivojlanishi malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Xonobod va Atrofdagi hududlarda turizm va mehmondo'stlik yo'nalishida ta'lim beruvchi o'quv muassasalari soni cheklangan. Bu esa xizmat ko'rsatish sifatining pastligiga olib keladi. Kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish, xorijiy tillarni o'qitishni joriy etish, amaliyotga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Hududiy turizmni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar

1. *Turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish.* Xonobod shahrida mehmonxonalar, dam olish maskanlari, transport va kommunikatsiya xizmatlarini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish. Ayniqsa, ekologik toza va barqaror turizm rivojiga e'tibor qaratish.

2. *Mahalliy madaniy va tarixiy merosni rivojlantirish.* Tarixiy obidalar, madaniy festivallar va hunarmandchilikni rag'batlantirish orqali turizmni jozibador qilish.

3. *Kadrlar malakasini oshirish.* Turizm sohasida ta'lim va malaka oshirish kurslarini kengaytirish, xorijiy tillarni o'rgatish va xalqaro standartlarga javob beradigan xizmat ko'rsatish sifatini ta'minlash.

4. *Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash.* Investitsiyalarni jalb qilish uchun soliqlar, kreditlar va grantlar bo'yicha imtiyozlar berish.

5. *Marketing va targ'ibot ishlarini kuchaytirish.* Xonobod shahrining turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish, onlayn platformalarda faol reklama qilish.

6. *Ekoturizm va sog'lomlashtirish yo'nalishlarini rivojlantirish.* Tog' ekoturizmi va mineral suv manbalaridan samarali foydalanish.

Xonobod shahri turizm sohasini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega hudud hisoblanadi. Hududning geografik joylashuvi, tabiiy va madaniy resurslari, iqlim sharoiti va aholining mehmondo'stligi turizmni iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mavjud infratuzilma, kadrlar tayyorlash va xizmat sifatining pastligi rivojlanishning asosiy to'siqlari sifatida ko'riladi.

XULOSA

Turizm sohasini barqaror rivojlantirish uchun hududiy infratuzilmani yaxshilash, innovatsion xizmatlar joriy etish, malakali kadrlar tayyorlash va marketing strategiyasini kuchaytirish zarur. Bu esa o'z navbatida Xonobod shahrining iqtisodiy salohiyatini oshirishga, bandlikni yaxshilashga va hududni yanada jozibador qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2025). Xonobod shahri

- sanoatining asosiy ko'rsatkichlari. <https://andstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mitayangiliklar/12657-xonobod-shahri-sanoatining-asosiy-ko-rsatkichlari-4>
2. Kun.uz. (2021). Xonobod shahri «Vodiy turizm maskani»ga aylantiriladi. [<https://m.kun.uz/news/2021/09/29/xonobod-shahri-vodiy-turizm-maskaniga-aylantiriladi>](<https://m.kun.uz/news/2021/09/29>)
 3. Юсупов М. Андижон вилояти. Фарғона. 2005.
 4. География туризма: учебное пособие; Н.Н.Дыжина. Москва, 2010.
 5. География туризма: Учебное пособие; П.В. Большаник. М.Альфа-М, НИЦ ИНФРА-М, 2016.
 6. Юсупходжаева, С. Х., Усманов, Б. А., & Патхиддинова, М. Ш. (2022). Характеристика микрофлоры полости рта и пародонтального кармана у больных перенёсших короновирусную инфекцию. *Re-health journal*, (2 (14)), 207-210.
 7. Нуриев, К. К., Рахматов, О., Кадирова, Р. С., & Рахматов, О. О. (2015). Биоконверсия органических отходов растительного происхождения в условиях Узбекистана. In *Проблемы рекультивации отходов быта, промышленного и сельскохозяйственного производства* (pp. 468-470).
 8. Raхmatov, F. O., Raхmatov, O., Nuriev, K. K., & Nuriev, M. K. (2021, October). Combined dryer with high efficiency for drying high-moist agricultural products. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 868, No. 1, p. 012076). IOP Publishing.
 9. Шукурова, У. А., & Бекжанова, О. Е. (2016). Показатели цитокинового профиля у больных красным плоским лишаем слизистой полости рта. *Знание*, (10-1), 67-70.